

KASBIY STANDART
Avtomobil haydovchisi

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart "Avtomobil haydovchisi" kasbi bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni tanlash, ularning malakasini oshirish va mehnat faoliyatini baholash kabi kadrlar boshqaruvi sohasidagi keng ko'lamli vazifalarni hal etishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta’sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta’lim – ta’lim xizmatlari taqdim etilishini ta’minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo’naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o’qitishdagi rasmiy ta’limga qo’shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

avtotransport vositasi – yo’l harakati uchun mo’ljallangan, mexanik harakatga ega bo’lgan transport vositasi.

baholash mezonlari – kasbiy malakani aniqlash jarayonida qo’llaniladigan, bilim, ko’nikma va malakalarni o’lchash uchun belgilangan talablar majmui.

kasbiy kompetensiya – belgilangan kasbiy faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va shaxsiy fazilatlar yig’indisi.

texnik xizmat ko’rsatish – avtotransport vositasining ishlashga yaroqliligini saqlash, nosozliklarni oldini olish yoki bartaraf etish bo’yicha muntazam amalga oshiriladigan ishlar majmui.

transport xavfsizligi – yuk va yo’lovchi tashish jarayonida haydovchi, yo’l harakati ishtirokchilari va atrof-muhit xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan tashkiliy va texnik choralar tizimi.

yuk tashish hujjatlari – yukni tashish, qabul qilish, topshirish va nazorat qilish jarayonini rasmiylashtiruvchi hujjatlar (yo’l varaqasi, yuk xati, hisob-faktura va boshqalar).

yo’l harakati qoidalari – yo’l harakati ishtirokchilari uchun belgilangan majburiy me’yor va talablar majmui.

yo’l harakati xavfsizligi – yo’llarda harakatlanish jarayonida inson hayoti, sog’ligi va mulkini himoya qilishni ta’minlaydigan huquqiy, tashkiliy va texnik choralar tizimi.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo’lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi “Shahar yo’lovchilar transporti to’g’risida” 419-I-sonli Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi “Avtomobil transporti to’g’risida” 674-I-sonli Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-martdagi “Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3589-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-59-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida"gi 482-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-sentabrdagi "Davlat avtovokzallari va avtostansiyalarini boshqarish samaradorligini ta'minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 712-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-iyuldagi "Avtomobil transportida yo'lovchilarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro, shuningdek yuklarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 636-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-dekabrdagi "Avtomobil transportida yo'lovchi tashish yo'nalishlari bo'yicha ochiq tenderlarni elektron tarzda tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 738-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-martdagi "Jamoat transportini moliyalashtirishning yangi tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 116-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-sentabrdagi "Transport sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyat tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 504-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-yanvardagi "Yuk va yo'lovchilarni tashishda avtotransport vositalariga yo'l varaqalarini elektron shaklda rasmiylashtirish va yuritish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 44-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "Kasbiy malakalarni rivojlantirish tizimini tashkil etish va boshqarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-369-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 9-oktabrda 1282-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Chipta-hisob va yo'l varaqalarini to'ldirish bo'yicha yo'riqnoma";

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirining 2021-yil 25-sentyabrdagi 14-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (ro'yxat raqami 3324, 2021-yil 6-oktyabr) "Yo'lovchi avtovokzallari va yo'lovchi avtostansiyalari to'g'risidagi nizom".

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TTMM – Tarmoq tarif-malaka ma'lumotnomasi;

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Avtomobil haydovchisi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Yuk va yo'lovchilarni avtomobil transporti orqali xavfsiz, sifatli va samarali tashish, hamda ularni belgilangan manzilga o'z vaqtida yetkazish, yo'l harakati qoidalariga to'liq rioya etgan holda transport vositasining texnik holatini nazorat qilish hamda tashish jarayonida inson, mulk va atrof-muhit xavfsizligini ta'minlashdan iborat.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	H seksiya Tashish va saqlash: 49 Quruqlikdagi va quvur transporti 49.4 Avtomobil transportida yuk tashish va chiqindilarni tashib chiqarish bo'yicha xizmatlar 49.41 Avtomobil transportida yuk tashish 49.41.0 Avtomobil transportida yuk tashish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Ushbu kasbiy standart yuk va yo'lovchilarni avtomobil transportida xavfsiz va samarali tashish, transport vositasiga texnik xizmat ko'rsatish hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablarni belgilaydi. Standartga ko'ra, avtomobil haydovchisi (yuk tashuvchi va yengil) yuklarni hamda yo'lovchilarni tashishga tayyorlash, ularni transport vositasiga to'g'ri joylashtirish (yukni joylash va mustahkamlash, yo'lovchilarni xavfsiz joylashtirish), manzilga xavfsiz yetkazish jarayonida xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilishi lozim. Haydovchi transport vositasining texnik holatini har kuni yo'lga chiqishdan oldin tekshirishi, yo'l harakati qoidalariga amal qilgan holda transport vositasini boshqarishi, belgilangan tezlik va masofa rejimiga rioya etishi, yuk hamda yo'lovchi tashish hujjatlarini to'g'ri yuritishi, dispetcherlik xizmati va buyurtmachi bilan doimiy aloqa o'rnatish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart. Yo'lovchi tashish jarayonida haydovchi yo'lovchilarning xavfsiz tushishi va chiqishini ta'minlashi, favqulodda vaziyatlarda tezkor va to'g'ri harakat qilishi hamda transport vositasida ichki tartib va xavfsizlik talablariga rioya etilishini nazorat qilishi zarur. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bilan bog'liq ishlar transport vositasining dvigatel, tormoz, uzatma va elektr tizimlarini tekshirish, nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Haydovchi profilaktik xizmat ko'rsatish tartibini bilishi, yoqilg'i va moylash materiallaridan to'g'ri foydalanishi, shuningdek ekologik va yo'l xavfsizligi talablariga rioya qilishi zarur. Ish xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablariga qat'iy amal qilish majburiy bo'lib, bu yo'l harakati ishtirokchilari, yuk va transport vositasi xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		83220001 Avtomobil haydovchisi (yengil)	2
		83320002 Avtomobil haydovchisi (yuk tashuvchi)	3

III. Kasblar funksional kartasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	83220001 Avtomobil haydovchisi (yengil)	A1.2	Avtomobilni harakatga tayyorlash va texnik holatini nazorat qilish	A1.01.2	Avtomobilning tashqi va ichki texnik holatini (shinalar, tormoz tizimi, yoritish moslamalari, signalizatsiya) ko'zdan kechirish.
				A1.02.2	Dvigatel moyi, sovitish suyuqligi, yoqilg'i va boshqa ekspluatatsion suyuqliklar darajasini tekshirish hamda zaruratga ko'ra to'ldirish.
		A2.2	Yo'l harakati jarayonida avtomobilni xavfsiz boshqarish	A2.01.2	Yo'l harakati qoidalariga rioya qilgan holda avtomobilni belgilangan marshrut bo'yicha boshqarish.
				A2.02.2	Yo'l va ob-havo sharoitlarini hisobga olib, tezlik va masofani xavfsiz tarzda tanlash.
		A3.2	Yo'lovchilar va yuklarni tashish jarayonini ta'minlash	A3.01.2	Yo'lovchilarni xavfsiz joylashtirish, ularning tushib-chiqishida xavfsizlik qoidalariga amal qilish.
				A3.02.2	Yuklarni belgilangan tartibda joylashtirish, mustahkamlash va tashish davomida saqlanishini ta'minlash.
2	83320002 Avtomobil haydovchisi (yuk tashuvchi)	B1.3	Yuk tashish jarayonini tashkil etish va amalga oshirish	B1.01.3	Yukni tashishga tayyorlash, uni transport vositasiga to'g'ri joylashtirish va mustahkamlash
				B1.02.3	Yukni manzilga xavfsiz va o'z vaqtida yetkazish, topshirish va hujjatlarni rasmiylashtirish
		B2.3	Avtomobil transport vositasini boshqarish	B2.01.3	Yo'l harakati qoidalariga rioya qilgan holda transport vositasini boshqarish
				B2.02.3	Harakat davomida tezlik, masofa va yuk xavfsizligini ta'minlash
		B3.3	Texnik xizmat ko'rsatish va nosozliklarni bartaraf etish	B3.01.3	Dvigatel, tormoz va elektr tizimlarining holatini tekshirish hamda kundalik texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish
				B3.02.3	Nosozliklarni aniqlash va oddiy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish

		B4.3	Yo'l harakati va mehnat xavfsizligini ta'minlash	B4.01.3	Yo'l harakati, mehnat muhofazasi va ekologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
				B4.02.3	Favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilish va birinchi yordam ko'rsatish
		B5.3	Muloqot va hujjatlar bilan ishlash	B5.01.3	Dispetcherlik xizmati va buyurtmachilar bilan axborot almashish, topshiriqlarni muvofiqlashtirish
				B5.02.3	Yuk tashish jarayoniga oid hujjatlarni to'ldirish va elektron tizimlarga ma'lumot kiritish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Avtomobil haydovchisi (yengil)	
Mashg'ulot nomining kodi:	83220	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	2-daraja uchun ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan), shuningdek, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan) o'tish. Ishchi kasbi sertifikatini Ishga munosabat va xulq-atvor: - rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; - o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; - belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; - mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; - o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; - jamoa bilan inoq ishlash; - o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	tayanch o'rta ta'lim + ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	–	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	1–3 razryadli Avtomobil haydovchisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	2	Yuk, xizmat, maxsus trolleybus, yo'lovchi tramvay haydovchisi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.2– Avtomobilni harakatga tayyorlash va texnik holatini nazorat qilish	A1.01.2 – Avtomobilning tashqi va ichki texnik holatini (shinalar, tormoz tizimi, yoritish moslamalari, signalizatsiya) ko'zdan kechirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Shinalar, yoritish va signalizatsiya moslamalarini vizual tekshirish
		2. Tormoz tizimi va boshqaruv organlari holatini baholash
		3. Salon va xavfsizlik elementlarining sozligini tekshirish
		Ko'nikma:
		Texnik nosozliklarni tashqi belgilar orqali aniqlash
		Avtomobil xavfsizligiga ta'sir etuvchi holatlarni baholash
		Ko'zdan kechirish jarayonini ketma-ketlikda bajarish
		Bilim:
		Yengil avtomobilning asosiy texnik qismlari
		Yo'l harakati xavfsizligi talablari
		Avtomobil ekspluatatsiyasi qoidalari
	A1.02.2 – Dvigatel moyi, sovitish suyuqligi, yoqilg'i va boshqa ekspluatatsion suyuqliklar darajasini tekshirish hamda zaruratga ko'ra to'ldirish	Mehnat harakatlari:
		1. Dvigatel moyi va sovitish suyuqligi darajasini o'lchash
		2. Tormoz va oyna yuvish suyuqliklarini tekshirish
		3. Zarurat bo'lganda suyuqliklarni belgilangan me'yorlarda to'ldirish
		Ko'nikma:
		Ekspluatatsion suyuqliklar darajasini aniqlash
		Oddiy texnik xizmat ishlarini bajarish
		Asbob-uskunalaridan xavfsiz foydalanish
		Bilim:
		Avtomobil suyuqliklarining vazifalari
A2.2 – Yo'l harakati jarayonida avtomobilni xavfsiz boshqarish	A2.01.2 – Yo'l harakati qoidalariga rioya qilgan holda avtomobilni belgilangan marshrut bo'yicha boshqarish.	Texnik xizmat ko'rsatish me'yorlari
		Dvigatel va yordamchi tizimlarning ishlash prinsipi
		1. Haydovchi avtomobilning harakatga chiqishdan oldingi texnik holati uchun shaxsan mas'ul bo'ladi.
		2. Mehnat faoliyatini belgilangan yo'riqnomalar asosida, mustaqil ravishda amalga oshiradi hamda aniqlangan nosozliklar bo'yicha tegishli shaxslarga axborot beradi.
		Mehnat harakatlari:
		1. Belgilangan yo'nalish bo'yicha harakatlanish
		2. Yo'l belgilariga va svetofor signallariga amal qilish
		3. Transport oqimiga moslashib harakatlanish
		Ko'nikma:
		Avtomobilni barqaror va silliq boshqarish
		Yo'l holatini tez baholash
		Qarorlarni tez va to'g'ri qabul qilish
		Bilim:

		Yo'l harakati qoidalar
		Yo'l belgilari va chiziqlari
		Transport oqimi xususiyatlari
	A2.02.2 – Yo'l va ob-havo sharoitlarini hisobga olib, tezlik va masofani xavfsiz tarzda tanlash.	Mehnat harakatlari:
		1. Yo'l qoplamasi va ob-havo holatini baholash
		2. Oldingi transport vositasi bilan xavfsiz masofani saqlash
		3. Harakat tezligini vaziyatga moslashtirish
		Ko'nikma:
		Xavfli vaziyatlarni oldindan sezish
		Tormozlash va manevr qilish
		Diqqatni uzoq vaqt saqlash
		Bilim:
		Xavfsiz harakat tamoyillari
		Tormoz masofasi tushunchasi
		Ob-havo sharoitlarining harakatga ta'siri
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Haydovchi yo'l harakati jarayonida yo'lovchilar, boshqa yo'l harakati ishtirokchilari va transport vositasining xavfsizligi uchun to'liq mas'ul.
		2. Qarorlarni mustaqil ravishda, Yo'l harakati qoidalar asosida qabul qiladi.
A3.2 – Yo'lovchilar va yuklarni tashish jarayonini ta'minlash	A3.01.2 – Yo'lovchilarni xavfsiz joylashtirish, ularning tushib-chiqishida xavfsizlik qoidalariga amal qilish.	Mehnat harakatlari:
		1. Yo'lovchilarning xavfsiz joylashishini ta'minlash
		2. Tushish-chiqish jarayonini nazorat qilish
		3. Harakat davomida xavfsizlik qoidalariga rioya etish
		Ko'nikma:
		Yo'lovchilar bilan to'g'ri muloqot qilish
		Xavfsiz tashish usullarini qo'llash
		Stressli vaziyatlarda o'zini boshqarish
		Bilim:
		Yo'lovchi tashish qoidalar
	A3.02.2 – Yuklarni belgilangan tartibda joylashtirish, mustahkamlash va tashish davomida saqlanishini ta'minlash.	Xavfsizlik kamarlari va tizimlari
		Xizmat etikasi asoslari
		Mehnat harakatlari:
		1. Yuklarni avtomobilda to'g'ri joylashtirish
		2. Yuklarni mahkamlash vositalaridan foydalanish
		3. Tashish davomida yuk holatini nazorat qilish
		Ko'nikma:
		Yuk muvozanatini baholash
		Xavfsiz mahkamlash usullarini qo'llash
		Avtomobil sig'imidan oqilona foydalanish
		Bilim:
		Yuk tashish qoidalar
		Og'irlik va muvozanat tushunchalari
		Avtomobil yuk ko'tarish me'yorlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Haydovchi tashish jarayonida yo'lovchilar va yuklarning xavfsizligi hamda saqlanishi uchun mas'ul.

		2. Faoliyatni mustaqil, belgilangan xizmat qoidalariga muvofiq bajaradi.
Texnik va/yoki texnologik talab		Yengil avtomobil amaldagi texnik reglamentlar va yo'l harakati xavfsizligi talablariga to'liq javob berishi hamda soz texnik holatda bo'lishi lozim. Avtomobil ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish yo'riqnomalariga muvofiq boshqarilishi talab etiladi. Harakatga chiqishdan oldin avtomobilning tormoz, rul boshqaruvi, yoritish va signalizatsiya tizimlari majburiy tartibda tekshirilishi lozim. Yo'l, ob-havo va transport oqimi sharoitlarini hisobga olgan holda xavfsiz boshqaruv texnologiyalaridan foydalanilishi talab etiladi. Avtomobilda mavjud xavfsizlik va yordamchi texnik tizimlardan belgilangan qoidalarga muvofiq foydalanilishi shart. Texnik nosozlik yoki favqulodda holatlar yuzaga kelganda belgilangan xavfsizlik va harakat algoritmlariga muvofiq choralar ko'rilishi lozim.

Kasbning nomi:	Avtomobil haydovchisi (yuk tashuvchi)	
Mashg'ulot nomining kodi:	83320	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3-daraja uchun ish staji talab etilmaydi, ammo kamida 3 oy amaliy stajirovkadan o'tgan bo'lishi zarur;	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan), shuningdek, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan) o'tish. Ishchi kasbi sertifikatini Ishga munosabat va xulq-atvor: - rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; - o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; - belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; - mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; - o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; - jamoa bilan inoq ishlash; - o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) boshlang'ich professional ta'lim 2) o'rta maxsus ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	—	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	1–8 razryadli Avtomobil haydovchisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	2	Yuk, xizmat, maxsus trolleybus, yo'lovchi tramvay haydovchisi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3 – Yuk tashish jarayonini tashkil etish va amalga oshirish	B1.01.3 – Yukni tashishga tayyorlash, uni transport vositasiga to'g'ri joylashtirish va mustahkamlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Yukni qabul qilish va holatini tekshirish.
		2. Yukni og'irligi va hajmiga qarab joylashtirish.
		3. Yukni mahkamlash vositalaridan to'g'ri foydalanish.
		4. Yukning siljish yoki shikastlanish xavfini oldini olish.

		Ko'nikma:
		Yukni xavfsiz joylashtirish va mahkamlash ko'nikmasi.
		Yuk turlarini ajratish va ularga mos usullarni tanlash.
		Maxsus yuklash uskunalaridan foydalanish.
		Yuk hujjatlari bilan ishlash va tartibni bilish.
		Bilim:
		Yuk tashish normalari va texnik xavfsizlik qoidalari.
		Yuk turlari va ularni joylashtirish talablarini bilish.
		Yuklash va tushirish vositalarining ishlash prinsipi.
		Yukni saqlash va tashish paytidagi xavfsizlik me'yorlari.
	B1.02.3 – Yukni manzilga xavfsiz va o'z vaqtida yetkazish, topshirish va hujjatlarni rasmiylashtirish.	Mehnat harakatlari:
		1. Marshrutni rejalashtirish va eng maqbul yo'lni tanlash.
		2. Transport vositasini yuk bilan boshqarish.
		3. Yukni qabul qiluvchiga topshirish jarayonini tashkil etish.
		4. Tashish hujjatlarini to'ldirish va topshirish.
		Ko'nikma:
		Yo'l sharoitiga mos harakatni rejalashtirish.
		Yuk tashish bo'yicha hujjatlarni yuritish.
		Buyurtmachi bilan aloqa o'rnatish va axborot berish.
		Yuk yetkazish bo'yicha hisobot tayyorlash.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	Bilim:
		Yo'l harakati va tashish hujjatlariga oid me'yorlar.
		Yuk tashish logistikasining asoslari.
		Buyurtmachi bilan shartnoma va hisob-kitob tartibi.
		Tashish xizmatlari sifatini baholash mezonlari.
		1. Haydovchi yukni tashishga tayyorlash va manzilga yetkazish jarayonining to'liq xavfsizligi uchun shaxsiy javobgarlikka ega.
		2. Yukni joylashtirish, mustahkamlash va yetkazib berish paytida mustaqil qaror qabul qiladi, lekin logistika yoki dispetcherlik yo'riqnomalariga muvofiq harakat qiladi.
		3. Yuk hujjatlaridagi ma'lumotlarning to'g'riligi va yukning butligi uchun javob beradi.
		4. O'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi, lekin buyurtmachi va rahbariyat bilan uzluksiz axborot almashadi.
B2.3 – Avtomobil transport vositasini boshqarish	B2.01.3 – Yo'l harakati qoidalariga rioya qilgan holda transport vositasini boshqarish.	Mehnat harakatlari:
		1. Transport vositasini yo'lga chiqishdan oldin tayyorlash.
		2. Harakat davomida tezlik va masofani nazorat qilish.
		3. Burilish, to'xtash va harakatlanish signallarini to'g'ri qo'llash.
		4. Yo'l belgilariga mos ravishda manevr bajarish.
		Ko'nikma:
		Har xil yo'l va iqlim sharoitida xavfsiz haydash.
		Avtomobil boshqaruvi usullaridan samarali foydalanish.
		Tezlikni va masofani to'g'ri tanlash.

		Yo'l belgilarini to'g'ri talqin qilish.
		Bilim:
		Yo'l harakati qoidalar va belgilarning mazmuni.
		Haydash fiziologiyasi va diqqatni boshqarish.
		Transport vositasi barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar.
		Avtomobilni boshqarishda xavfsizlik talablari.
	B2.02.3 – Harakat davomida yuk xavfsizligini ta'minlash.	Mehnat harakatlari:
		1. Yuk joylashuvini harakat davomida kuzatish.
		2. Zarurat bo'lganda to'xtab yukni tekshirish.
		3. Yuk siljigan holatlarda uni qayta mustahkamlash.
		4. Yukni tushirish joyida xavfsiz manevr qilish.
		Ko'nikma:
		Yuk muvozanatini saqlash.
		Harakat paytida yukni siljitmaslik choralari bilish.
		Favqulodda holatda xavfsiz to'xtash.
		Yuk holatini muntazam nazorat qilish.
		Bilim:
		Yuk tashish xavfsizligi bo'yicha normativlar.
		Transport vositasi yuk sig'imi va muvozanat tamoyillari.
		Favqulodda holatlarda harakat tartibi.
		Yuk joylashuvi va og'irlik markazining ta'siri.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Transport vositasini boshqarish, yo'l harakati qoidalariga rioya qilish va yo'lovchilar/yuk xavfsizligini ta'minlash uchun to'liq mas'uldir.
		2. Haydash davomida tezlik, masofa va yo'l sharoitiga mos qarorlarni mustaqil qabul qiladi.
		3. Favqulodda vaziyatlarda o'z vaqtida va to'g'ri harakat qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.
		4. Harakat jarayonida texnik va yo'l xavfsizligi talablariga qat'iy amal qiladi, dispetcherlik bilan muntazam aloqa olib boradi.
B3.3 – Texnik xizmat ko'rsatish va nosozliklarni bartaraf etish	B3.01.3 – Transport vositasining texnik holatini tekshirish va kundalik xizmat ko'rsatish.	Mehnat harakatlari:
		1. Dvigatel, tormoz va chiroqlarni tekshirish.
		2. Moy, sovutish va suyuqlik darajasini o'lchash.
		3. G'ildirak bosimini nazorat qilish.
		4. Xizmatdan oldin tashqi ko'rik o'tkazish.
		Ko'nikma:
		Texnik ko'rik jarayonini bajarish.
		Asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanish.
		Texnik holat haqida yozma hisobot tuzish.
		Oddiy profilaktik ishlarni bajarish.
		Bilim:
		Texnik xizmat ko'rsatish reglamentlari.
		Transport vositasi tizimlarining tuzilishi.
		Moylash va texnik suyuqliklar xususiyatlari.
		Kundalik texnik nazorat standartlari.

	B3.02.3 – Nosozliklarni aniqlash va oddiy ta'mirlash ishlarini bajarish.	Mehnat harakatlari: 1. Nosozlik belgilari va sabablarini aniqlash. 2. Diagnostika asboblari yordamida tekshiruv o'tkazish. 3. Shikastlangan qismlarni almashtirish. 4. Ta'mirdan keyin sinov ishlarini bajarish. Ko'nikma: Nosozliklarni tahlil qilish va bartaraf etish. Diagnostika asboblaridan foydalanish. Oddiy ta'mirlash ishlarini bajarish. Xavfsizlik choralariga rioya qilish. Bilim: Dvigatel, uzatma, tormoz tizimi tuzilishi. Diagnostika usullari va belgilari. Asbob-uskunalar ishlash prinsipi. Texnik ta'mirlash bo'yicha me'yorlar.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Transport vositasining texnik holatini saqlash va kundalik xizmat ko'rsatish uchun javobgardir. 2. Texnik tekshiruv va profilaktika ishlarini mustaqil bajaradi, ammo murakkab ta'mirlash holatlarida mutaxassis yoki ustaxonaga murojaat qiladi. 3. Nosozliklarni aniqlashda va ularni bartaraf etishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi. 4. Texnik hujjatlarni to'g'ri yuritish va nazorat hisobotlarini o'z vaqtida topshirish uchun mas'uldir.
B4.3 – Yo'l harakati va mehnat xavfsizligini ta'minlash	B4.01.3 – Yo'l harakati va mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.	Mehnat harakatlari: 1. Yo'l belgilari va signal tizimlariga amal qilish. 2. Ish joyida xavfsizlik vositalaridan foydalanish. 3. Yong'in xavfsizligi choralarini ko'rish. 4. Elektr xavfsizligi talablariga rioya qilish. Ko'nikma: Xavfsiz ish sharoitini yaratish. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish. Yo'l xavfsizligini ta'minlash. Ekologik xavfsizlikni saqlash. Bilim: Mehnat muhofazasi bo'yicha me'yoriy hujjatlar. Yo'l xavfsizligi tizimlari. Yong'in va elektr xavfsizligi qoidalari. Atrof-muhitni muhofaza qilish talablari.
	B4.02.3 – Favqulodda holatlarda xavfsiz harakat qilish va birinchi yordam ko'rsatish.	Mehnat harakatlari: 1. Favqulodda holatni aniqlash va tezkor baholash. 2. Transportni xavfsiz to'xtatish. 3. Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish. 4. Hodisa haqida dispetcherga xabar berish. Ko'nikma: Favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish. Tibbiy yordam ko'rsatish asoslari. Dispetcherlik bilan aloqa o'rnatish.

		Stressli vaziyatlarda xotirjam harakat qilish.
		Bilim:
		Favqulodda vaziyatlarda harakat algoritmi.
		Birinchi yordam ko'rsatish tartibi.
		Favqulodda signal tizimlari.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	Hodisa qayd etish va hisobot berish tartibi.
		1. O'z mehnat faoliyati davomida yo'l harakati, mehnat muhofazasi va ekologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish uchun javobgar.
		2. Favqulodda holatlarda mustaqil va tezkor qaror qabul qilish hamda hodisani to'g'ri xabar qilish uchun mas'uldir.
		3. Shaxsiy va atrofdagilarning xavfsizligini ta'minlash borasida mustaqil harakat qiladi.
		4. Ish joyida xavfsizlik madaniyatini saqlash va himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish uchun javobgarlikka ega.
B5.3 – Muloqot va hujjatlar bilan ishlash	B5.01.3 – Dispetcherlik xizmati va buyurtmachilar bilan axborot almashish.	Mehnat harakatlari:
		1. Dispetcherlikdan topshiriq olish.
		2. Yuk yetkazish holati haqida ma'lumot berish.
		3. Telefon yoki radio aloqa orqali bog'lanish.
		4. Buyurtmachi bilan xizmatni muvofiqlashtirish.
		Ko'nikma:
		Rasmiy muloqot yuritish madaniyati.
		Elektron va radio aloqa vositalaridan foydalanish.
		Axborotni aniq yetkazish.
		Konfliktli holatlarda madaniyatli muloqot.
		Bilim:
		Aloqa tizimlari va ularning ishlash prinsipi.
		Axborot berish etikasi.
		Dispetcherlik tartib-qoidalar.
		Buyurtmalarni ro'yxatga olish tartibi.
	B5.02.3 – Yuk tashish faoliyatiga oid hujjatlarni yuritish va topshirish.	Mehnat harakatlari:
		1. Yo'l varaqasi va yuk xatini to'ldirish.
		2. Hujjatlarni buyurtmachiga topshirish.
		3. Elektron hisobotlarni kiritish.
		4. Hujjatlarni arxivlash.
		Ko'nikma:
		Hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish.
		Elektron tizimlarda ishlash.
		Hisobotlarni tayyorlash.
		Hujjat aylanishi tartibini bilish.
		Bilim:
		Tashish hujjatlarini yuritish me'yorlari.
		Elektron ma'lumot almashish tizimlari.
		Hisobot hujjatlari shakllari.
		Rasmiy hujjatlarning huquqiy ahamiyati.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Dispetcherlik va buyurtmachilar bilan axborot almashish jarayonida ma'lumotlarning aniqligi uchun javobgardir.

		2. Tashish hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish, topshirish va arxivlashni mustaqil amalga oshiradi. 3. Ish jarayonida xizmat intizomiga, muloqot madaniyatiga va tijorat sirlarini saqlashga rioya qiladi. 4. Hisobot topshirishda, elektron tizimlarga ma'lumot kiritishda va xizmat sifati uchun shaxsiy javobgarlikka ega.
Texnik va/yoki texnologik talab		Gidravlik lift, yuk ko'taruvchi arba, mahkamlash kamarlari, GPS-navigatsiya va dispetcherlik aloqa vositalari. Taxograf, videoregistrator, orqa ko'rish kamerasi, tezlik chegaralagich, radioaloqa vositalari. Qo'l asboblari (kalitlar, otvertkalar), elektr asboblari (burg'u, kompressor), o'lchash uskunalari (manometr, multimetr, OBD-skaner), yordamchi asboblari (domkrat, narvon, SHHV). O't o'chirgich, dori jihozlarni, ogohlantiruvchi uchburchak, fonar, shaxsiy himoya vositalari (jilet, qo'lqop, ko'zoynak). Planshet yoki mobil qurilma, elektron hujjat aylanishi tizimi, printer va skaner, GPS-dispetcherlik platformasi.

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	"Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti" bosh direktor birinchi o'rinbosari	Ergashev Sh.
2	"Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti" kengash kotibi	Raimov T.
3	"Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti" bo'lim boshlig'i	Erdanayev Z.
4	"Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti" bo'lim boshlig'i	Boliev O.
5	"Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti" bosh mutaxassis	Amanova Z.
6	"Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti" yetakchi mutaxassis	Xakimov M.
7	"Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti" yetakchi mutaxassisi	Inomjonov Sh.